Annotatsiya: Ushbu maqola cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini sotish tizimini takomillashtirish va tarmoqni modernizatsiyalash masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlash, transport xizmati, marketing va xo'jalik yuritishning zamonaviy yondashuvlari taklif etiladi. Shuningdek, mintaqaning ekologik va ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun ilg'or texnologiyalar va innovatsion usullardan foydalanish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: cho'l-yaylov chorvachiligi, qorako'l terisi, mahsulotlarni qayta ishlash, tarmoqni modernizatsiyalash, ekologik choralar, iqtisodiy samaradorlik, texnologik rivojlanish, innovatsion yondashuvlar.

Abstract: This article is devoted to the issues of improving the system of sale of steppe-pasture livestock products and modernization of the network. Also, modern approaches to processing, transport services, marketing and management of steppe-pasture livestock products are proposed. It is also proposed to use advanced technologies and innovative methods to solve the ecological and social problems of the region.

Key words: steppe-pasture livestock, Karakul skin, Product processing, Modernization of the industry, Ecological measures, Economic efficiency, Technological development, Innovative approaches.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросам совершенствования системы реализации продукции степного животноводства и модернизации сети. Также предложены современные подходы к переработке продукции пустынно-пастбищного животноводства, транспортному обслуживанию, маркетингу и менеджменту. Также предлагается использование передовых технологий и инновационных методов для решения экологических и социальных проблем региона.

Ключевые слова: степно-пастбищное животноводство, Каракольская кожа, Переработка продукции, Модернизация сети, Экологические мероприятия, Экономическая эффективность, Технологическое развитие, Инновационные подходы.

KIRISH

Hozirgi kunda qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosi tarkibiga tovar-xom ashyo birjalari, chorvachilik mahsulotlari yarmakalari, tijorat-vosiyachi firmalar, kichik hajmda chorvachilik mahsulotlari ulgurji va chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi do'konlar, supermarketlar, savdo uylari, dehqon bozorlari va boshqa savdo shahobchalarini kiritish mumkin.

Cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimi talab darajasida shakllanmaganligi, qayta ishlovchi korxonalar yetishmasligi natijasida mahsulot yetishtiruvchilar ham, iste'molchilar ham zarar ko'rmoqda. Ko'p hollarda tadbirkorlar o'z mahsulotlarini yaqin joylashgan bozorlarga olib chiqishi, mahalliy bozorda mahsulotlar miqdorining ko'payishiga va narxning pasayishiga, hamda ishlab chiqaruvchining zarar ko'rishiga olib keladi. Qayta ishlovchi korxonalar yetishmasligi sababli ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bir qismi sotilmasdan qolmoqda.



Cho'l-yaylov chorvachiligi xo'jaliklari har kuni bozorga mahsulot chiqarish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli ular tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotlarni sotishda imtiyozli sharoitlar yaratilishi lozim.

Bu muammo cho'l-yaylov chorvachiligida mahsulotlarni qayta ishlash va sotishga ixtisoslashgan kooperativlar tashkil etish yo'li bilan yechiladi. Bunday kooperativlarga cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlovchi, tovar mahsulotlarini sotish hamda transport xizmati ko'rsatuvchi korxonalarni kiritish mumkin. Qorako'l teri va junning asosiy qismi respublikada 3–4 ta firma tomonidan tayyorlanmoqda va ular O'zbekiston bozorida monopol mavqega egadirlar. Bu esa yetishtirilgan mahsulotlarning bozor baholaridan ancha past narxlarda sotilishiga va ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligi kamsitilishiga olib kelmoqda.

"Mexovaya Moda" MCHJ faoliyati tahlili ko'rsatadiki, tuzlangan qorako'l terisini o'rtacha 38,0 ming so'mdan sotib olgan, uni oshlab 65,0 ming so'mdan sotgan. Ushbu terilardan tayyorlangan shubadagi bir dona qorako'l terining o'rtacha narxi 118,0 ming so'mni tashkil etgan va mos ravishda olingan foyda 17,0 ming va 64,0 ming so'mni tashkil qilgan.

"Istiqloq" ixtisoslashgan naslchilik xo'jaligi (INX) tirik vaznda 1 sentner go'shtni 683,6 ming so'mdan, go'sht shaklida 2 000,0 ming so'mdan va kolbasa shaklida esa 2 780,0 ming so'mdan sotgan hamda mos ravishda 229,1 ming, 985,9 ming va 1 810,0 ming so'm foyda olgan. "Sayxan" INX 1 sentner juni 800,0 ming so'mdan kigiz tayyorlovchi sexga sotib, 26,1 ming so'm foyda olgan, sex esa tayyor mahsulot shaklidagi junni 3 478,6 ming so'mdan sotib, 1 735,7 ming so'm foyda olgan.

Ta'kidlash joizki, qayta ishlash korxonalari yetishmasligi, mahsulot ishlab chiqariladigan joylarda ularning deyarli yo'qligi sababli mahsulotlarning katta qismi xom ashyo shaklida sotilmoqda, hatto bir qismi sotilmasdan qolmoqda.

Shu sababli kooperativlarning asosiy vazifasi – cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini mayda tovar ishlab chiqaruvchilardan yig'ish va qulay yo'llar bilan sotishni tashkil etish hamda bozor talabidan kelib chiqqan holda ularni qayta ishlashdir. Shu bilan birga, kooperativlar mayda tovar ishlab chiqaruvchilarni omuxta yem va dag'al xashak bilan ta'minlaydi, ularga zooveterinariya xizmatlari, shuningdek, respublikaning cho'l-yaylov mintaqalaridagi tovar ishlab chiqaruvchilarga va aholiga boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Bu, shahar va yirik aholi yashash punktlaridan uzoqda joylashgan mayda tovar ishlab chiqaruvchilar va aholi uchun o'ta muhim ijtimoiy-iqtisodiy masala hisoblanadi.

Cho'l-yaylov chorvachiligining barqaror rivojlanishi va mamlakat aholisini uzluksiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash (go'sht, qo'y, ot va tuya suti), shuningdek, qorako'l terisi, jun, qo'y terisi, shirdon va boshqa turdagi yirik mollar terisi kabi qimmatli xom ashyolarning joylarda to'liq qayta ishlalishini ta'minlash uchun tarmoqda tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, texnologik va ekologik tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar tahlili orqali chorvachilik mahsulotlari sotish tizimini takomillashtirish haqida mavjud ilmiy ishlar va tadqiqotlar o'rganildi. I. Salamov, Sh. Nurmanov (2024) tomonidan yozilgan "Qishloq xo'jaligi klasterlarida mahsulotlarni ichki va xorij bozorlariga eksport qilish jarayonlari menejmenti" nomli ilmiy maqolada qishloq xo'jaligi klasterlarida mahsulotlarni ichki va xorij bozorlariga eksport qilish (menejmenti, mahsulotlarni tashish, saqlash, qayta ishlash, sublimatsiya qilish, quritish, ularning tarkibidagi nitrat va nitritlarni aniqlash) jarayonlari yoritilgan. Mazkur maqolada Samarqand viloyati qishloq xo'jaligida 2021–2022-yillar yakunlari taqqoslangan, xulosalar va takliflar berilgan. Shuningdek, Samarqand viloyatida tashkil etilgan chorvachilik klasterlari haqidagi ma'lumotlar keltirilib, xorij mamlakatlarida mahsulot va tovarlarni yetkazib berish tajribalaridan ayrim misollar o'rganilgan. Klasterlarni tashkil qilish va ularning faoliyatini yuritishda menejment usullarini qo'llash masalalari yoritilgan [1].

A. Tangirovning (2025) "Cho'l-yaylovlari ekologik holati va ularning samaradorligini oshirish yo'llari" nomli ilmiy maqolasida mamlakat cho'l-yaylovlari degradatsiyalanish darajasining hozirgi holati va uni qayta tiklash, ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan innovatsion texnologiya – "Yaylov-qorako'lchilik kompleksi" modelini ishlab chiqarishga joriy etish va uning iqtisodiy samaradorligi kabi masalalar o'rganilgan [2].

Shuningdek, A. Tangirovning (2019) "Экономическая эффективность переработки каракульских шкур" nomli ilmiy maqolasida cho'l-yaylov chorvachilik fermalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni fermer xo'jaliklari tomonidan qayta ishlash uchun umumiy ovqatlanish korxonalariga yetkazib berish, shuningdek, mahsulotlarni xususiy tadbirkorlar va aholi tomonidan savdo va dehqon bozorlarida sotish masalalari va usullari ko'rib chiqilgan [3].

Yuqoridagi ilmiy maqolalar chorvachilik mahsulotlari sotish tizimini takomillashtirish va tarmoqni modernizatsiyalash yo'nalishida muhim manbalar hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlar sotish tizimini rivojlantirishda amaliy ta'sirga ega bo'lishi bilan birga, ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishda xizmat qiladi.



TADQIQOT METADOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida nazariy tahlil va kontent tahlili, empirik tadqiqot, kompleks tahlil, statistik tahlil, kvantitativ va sifatli tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tashkiliy tadbirlar – yuqori mahsuldor, raqobatbardosh, tegishli rangdagi va rang-baranglikdagi (sur, ko'k, kumush, po'lati va boshqalar), hamda gul tipidagi (qavurg'asimon, yassi, qorako'lcha) qorako'l teri beradigan qorako'l qo'ylarining zavod tiplarini yaratish, zotning mavjud genofondini saqlash va boshqa mamlakatlardagi qorako'l qo'ylarining genotiplari bilan uni boyitish, zarur iqtisodiy manfaatdorlik choralarini amalga oshirish, salohiyati yuqori naslli qo'chqorlar sperma bankini yaratish genofondning saqlanishini ta'minlaydi va mavjud zotlarni takomillashtirishning muhim usullaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, barcha xo'jaliklarni, avvalo, dehqon va aholi yordamchi xo'jaliklarini yuqori mahsuldor ona qo'ylar va naslli qo'chqorlar hamda ularning spermalari bilan ta'minlash lozim.

Yaylovlardan foydalanish va cho'lda ozuqa tayyorlash qismida: yaylov o'simliklarining degradatsiyaga uchraganligi sababli keyingi yillarda mollarning yaylovdan oladigan ozuqasi miqdori keskin kamaygan. Bunga sabab – tabiiy yaylov ozuqa zaxirasiga nisbatan 3–4 marta ko'p miqdordagi mollarning boqilishidir. Suv manbalarining eshishishi va ishdan chiqishi bir yaylov maydonida mollar ortiqcha boqilishi, ikkinchisida esa boqilmasligiga olib kelmoqda. Shu sababli yangi yaylov maydonlarini o'zlashtirish, suv manbalari bilan bog'liq bo'lgan masalani hal qilish, hosildorlikni hisobga olgan holda yaylovni boshqarish tizimini ishlab chiqish va uni joriy etish lozim. Yaylovlardan ratsional foydalanish tizimini qo'llash, yerning kadastr bahosini aniqlash, yuqori hosilli navlardan foydalangan holda degradatsiyalangan yaylov maydonlarini fitomeliorsiyalash, urug' yetishtirish maydonlarini tashkil etish, bosqichma-bosqich yaylovlarni suv manbalari bilan ta'minlash hamda yuqori hosildorli (tabiiy yaylovga nisbatan 3–5 barobar ko'p hosil beradigan) sun'iy yaylovlarni yaratish lozim.

Cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlash qismida: birinchidan, mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi, ularni qayta ishlovchi, agroservis va aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatuvchi ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari va agrofimalarni shakllantirish; ikkinchidan, joylarda kooperatsiya asosida cho'l-yaylov mahsulotlaridan tayyor tovarlar tayyorlovchi va oziq-ovqat mahsulotlarini sotuvchi hamda tayyor buyumlar ishlab chiquvchi ixcham sanoat korxonalarini qurish lozim.

Tayyor tovar mahsulotlarini sotish qismida: qorako'l terisi va undan tayyorlangan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar xalqaro mo'yna auksionlarida muntazam ishtirok etishlari, shuningdek, qorako'l teri, jun, mol terilaridan ishlangan buyumlarni sotish maqsadida xorijiy mamlakatlarda savdo uylari ochishlari uchun davlat tomonidan ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yo'lga qo'yilishi zarur.

Tovar ishlab chiqaruvchilar bilimini oshirish qismida: cho'l-yaylov mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha o'quv qo'llanma tayyorlash, uni har bir ishlab chiqaruvchiga yetkazish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha joylarda seminar-treninglar tashkil etish muhimdir.

Moddiy-texnika ta'minoti qismida: ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur bo'ladigan jihozlar va materiallar, xususan xorijiy mamlakatlardan yetkazib berilishi jarayonida ishlab chiqaruvchilarga davlat tomonidan imtiyozli sharoitlar yaratish va moliyaviy yordam ko'rsatish lozim.

Iqtisodiy tadbirlar. Cho'l-yaylov chorvachiligi mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan 5–6 marta kamligini hisobga olib, ushbu iqtisodiy nochor hududlar rivojlanishini barqarorlashtirishga qaratilgan infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar uchun 1 foizlik hamdardlik (solidarlik) solig'ini 5 yil muddatga joriy etish va shakllantirilgan mablag'larni cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashga yo'naltirish maqsadga muvofiq;

Cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi subyektlarga zamonaviy agroservis, xususan zooveterinariya xizmatlarini qishloq joylarda shakllantirish uchun xususiy zooveterinariya va boshqa turdagi agroservis xizmatlarini ko'rsatuvchi shahobchalarni tashkil etish maqsadida tadbirkorlarga tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar ajratilishi maqsadga muvofiq;

Cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini joylarda qayta ishlovchi xususiy, ixcham sanoat korxonalarini tashkil etishni yo'lga qo'yish maqsadida tadbirkorlarga davlat moliyaviy yordam ko'rsatishi va tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar ajratilishiga ko'maklashishi;

Ixtisoslashgan auksionlar orqali naslli va boshqa mollarni sotishni yo'lga qo'yish, shuningdek, zooveterinariya, naslchilik, mollarni go'shtga so'yish va boshqa xizmatlarni ko'rsatadigan punktlarni tashkil etish yo'li bilan cho'l-yaylov chorvachiligi rivojlangan mintaqalarda tadbirkorlarning iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish;



Cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, tashish va iste'molchiga yetkazib berishning ilg'or usullari va zamonaviy texnologiyalari, shuningdek, ularning o'zaro ishlab chiqarish-shartnoma-moliyaviy munosabatlari bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tashkil etish;

Zamonaviy texnologik jihozlar, yuqori samaradorlikka ega texnologiyalar va mini-sexlarni sotib olish uchun cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarini qayta ishlovchi xo'jalik va korxonalarga uzoq muddatli kreditlar ajratish;

Cho'l-yaylov chorvachiligida muhim vazifa – chorvador-xo'jayin shakllanishi uchun qulay muhit yaratish hisoblanadi. Buning uchun bozor maydoni, bozorning barcha tarkibiy bo'linmalari (ishlab chiqarish, qayta ishlash, savdo, ijtimoiy-iste'mol infratuzilmasi va tijorat-vositachilik tashkilotlari) va ularning o'zaro faoliyat ko'rsatish mexanizmlari, bosqichma-bosqich xususiy mulkka asoslangan fermer va ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari, hamda agrofimlar va boshqa xo'jalik yuritish shakllarini cho'l mintaqalarida tashkil etish, bunda ishlab chiqarish, mahsulotlarni sotish va foydani taqsimlashda ishlab chiqaruvchining iqtisodiy erkinligi ta'minlanadi.

Texnologik tadbirlar. Respublika yaylovlaridan ratsional foydalanish uchun mavjud shaxtali quduq va skvajinalarni modernizatsiyalash hamda yangi suv manbalarini ishga tushirish hisobiga suv bilan ta'minlanmagan yaylovlarni o'zlashtirish va yaylov aylanmasi tizimidan samarali foydalanish. Shu bilan birga, yaylovlarni himoyalovchi ixotazorlar barpo etish va yuqori hosilli ko'pkomponentli yaylov agrofototsenozlarini yaratish yo'li bilan ularni tubdan yaxshilash;

Poda tarkibi va sifatini takomillashtirish (ona qo'y salmog'i kamida 70–75 %) hamda seleksiya va naslchilik ishlarini tubdan yaxshilash hisobiga cho'l-yaylov chorvachiligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlash va ishlab chiqarishni ko'paytirish;

Cho'l-yaylov chorvachiligida mahsulotlarni ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonida resurs tejankor va atrof-muhitni muhofaza qiluvchi texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi, bozor talablaridan kelib chiqib xo'jaliklar faoliyatini qorako'l teridan go'sht ishlab chiqarishga yo'naltirish (katta yoshli hayvonlarni bo'rdoqilash va 2–3 oylik qo'zilardan qo'zi go'shti yetishtirish); cho'l-yaylov chorvachiligi urchitiladigan hududlarda qayta ishlash korxonalarini qurish, qorako'l terisi, mol terilari, jun, go'sht, sut va boshqa mahsulotlarni qayta ishlaydigan zamonaviy texnologiyalar bilan ularni jihozlash;

Cho'l-yaylov chorvachiligi majmuasiga kiruvchi barcha korxonalarda zooveterinariya tadbirlarini yuqori darajada tashkil etish.

Ekologik tadbirlar. Cho'l-yaylov chorvachiligi joylashgan mintaqalardagi aholining doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanishini, ichimlik suvi, oziq-ovqat mahsulotlari, tabiiy gaz, elektr energiyasi va boshqa kundalik zarur ehtiyojlarni qondirishni tubdan yaxshilash, tabiiy yaylovlar degradatsiyasini bartaraf etish va inqirozga uchragan yaylov maydonlarini tiklash;

Innovatsion texnologiyalardan foydalanib, mollar go'ngidan biogaz ishlab chiqarishni tashkil etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Cho'l-yaylov chorvachiligida yuqori mahsuldor, raqobatbardosh, tegishli rangdagi, rangbaranglikdagi va gul tipidagi teri beradigan qorako'l qo'ylarining zot tiplarini yaratish, yaratilgan zotning mavjud genfondini saqlash, qorako'l qo'yining genotiplari bilan uni boyitish, zarur iqtisodiy manfaatdorlik choralarini amalga oshirish, salohiyati yuqori naslli qo'chqorlar sperma bankini yaratish genofondning saqlanishini ta'minlaydi va mavjud zotlarni takomillashtirishning muhim usullaridan biri hisoblanadi. Bu esa barqaror rivojlanishni, oziq-ovqat va xom ashyo hamda tayyor tovar mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishini ta'minlaydi, shuningdek, tarmoq iqtisodiy samaradorligining oshishiga imkon yaratadi.

Qorako'l qo'yini oziqlantirishda ozuqa tayyorlashning samarali texnologiyalaridan foydalanish, ularni to'la qiymatli (oqsil va vitaminlar bilan boyitilgan) ozuqalar bilan ta'minlash, yaylovning hosildorligini hisobga olgan holda ehtiyot xazira ozuqa tayyorlashni taqozo etadi.

Cho'l-yaylov chorvachiligi mintaqalarida xo'jalik yuritish shakllarini mukammallashtirish davrida soliq, kredit, boj, sug'urta, lizing, ijara to'lovlari va zarur moddiy resurslar, mashina va mexanizmlar hamda jihozlar xarid qilishda davlat tomonidan imtiyozlar kamida 5 yilga belgilanishi; bozorning boshqa turlari bilan birgalikda respublikada naslli qorako'l qo'ylari bozori, mo'yna va qorako'l terisi auksionini tashkil etish lozim.

Chorvachilik xo'jaliklari bilan tayyorlov, qayta ishlash, sotish va ularga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan subyektlar o'rtasidagi o'zaro shartnomaviy munosabatlarning qonuniy va huquqiy jihatdan ustuvorligini belgilash, tomonlarning o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarining bajarilishi, ularning javobgarliklari, huquqlari va vazifalarini bozor tamoyillariga moslashtirish zarur.

Innovatsion texnologiyalar hisobiga mollarni oziqlantirish va saqlashni takomillashtirish hamda ozuqa tayyorlashning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanilgan holda ularni to'la qiymatli ozuqalar bilan ta'minlash, yaylov hosildorligini hisobga olgan holda ehtiyot xazira ozuqa tayyorlash talab etiladi.

Yaylov o'simlik qoplamidan ratsional foydalanish, ularni tiklash va hosildorligini oshirish, biologik xilmaxillikni himoyalash va boyitish, cho'l hududlarining ekologik holatini yaxshilash orqali tarmoqning iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Salomov, Sh.Nurmanov, B.Vaslidinov A.Ulmasov "Qishloq xo'jaligi klasterlarida mahsulotlarni ichki va xorij bozorlariga eksport qilish jarayonlari menejmenti" "AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI" Ilmiy -amaliy jurnal "YEM-XASHAK YETISHTIRISHDAGI MUAMMOLAR, ULARNING YECHIMI VA ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR" mavzusidagi Xalqarp ilmiy-amaliy anjuman Maxsus son [2], 2024
2. A.Tangirov, Sh.Nurmanov. Cho'l-yaylovlar ekologik holati va ularning samaradorligini oshirish yo'llari. Scienceproblems. uz ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. № 2 (5) – 2025 (ISSN: 2181-1342 (Online) Сайт: <https://scienceproblems.uz> DOI: 10.47390/SPR1342V5I2Y2025)
3. А.Э.Тангиров, Ш.Х.Пурманов, Н.У.Урунова. "Экономическая эффективность переработки каракульских шкур". Международной на учно-практической конференции «GLOBAL CIENCE AND INNOVATIONS 2019: CENTRAL ASIA» HYP-CYЛTAN -2019
4. RAKHMATOV, B. (2024). THEORETICAL ASPECTS OF THE PROBLEM RESOURCE SAVING. Gospodarka i Innowacje., 46, 198-209.
5. Egamovich, T. A., & Khojayarovich, N. S. (2022). INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR PROCESSING OF KARAKUL PELTS AND THEIR ECONOMICAL EFFICIENCY. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2(1.1 Economical sciences).
6. Salomov, I., Nurmanov, S., & Hotamov, A. (2024). Chorvachilik tarmoo'ida mahsulotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish imkoniyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
7. Salomov, I., Nurmanov, S., Tursunov, A., & Yo'ldoshev, R. (2024). Chorvachilik tarmoqlarida otchilik infratuzilmasining hozirgi holati va istiqboldagi iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
8. Nurmanov, S., Eshimova, G., & Daniyarov, X. (2024). Raqamli iqtisodiyotning bugungi kundagi holati. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
9. Nurmanov, S. (2024). THE IMAGE OF A BIRD AS AN INDEPENDENT ELEMENT IN HISTORICAL AND ARCHITECTURAL OBJECTS. Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(11), 35-38.
10. Nurmanov, S., Eshimova, G., & Daniyarov, X. (2024). Raqamli iqtisodiyotning bugungi kundagi holati. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
11. Salomov, I., Nurmanov, S., & Hotamov, A. (2024). Chorvachilik tarmoo'ida mahsulotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish imkoniyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
12. Xamdamova, N., Tirkashev, F., Sayfullayev, A., & Erkinov, S. (2024). Chorvachilikning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va uning rivojlanishi. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
13. Alikulov, A., Eshmuradov, U., & Abdushukurov, K. (2024). Improving Cost Accounting for Sales of Agricultural Products in Farms. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
14. Tirkashev, F. M. (2025). INTELLEKTUAL MULK TOIFASINI TAVSIFLASH. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(32), 92-98.
15. Rahmiddin o'g, Y. J. R., & Tirkashev, F. M. (2025, January). „TURIZM SOHASINI JAMIYATGA TADQIQ QILISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI“. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 3, No. 30, pp. 242-250).
16. Rahmiddin o'g, Y. J. R., & Tirkashev, F. M. (2024). AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO AMALIYOTI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(12), 70-77.
17. Rahmiddin o'g, Y. J. R., & Tirkashev, F. M. (2025). „TURIZM SOHASI KLASTERLASHUVI SHAROITIDA INFRATUZILMANING SAMARALI RIVOJLANISHI UCHUN USTUVOR VAZIFALARNI BELGILASH“. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(35), 15-23.
18. Tirkashev, F. M., & Asomiddin o'g'li, A. H. (2025). MOLYAVIY RESURLARNI BOSHQARISHDA INTELLECTUAL MULKNING AHAMIYATI. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(4), 421-427.
19. Rahmiddin o'g, Y. J. R., & Mahmudovich, T. F. (2024). O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION O'YALAR, 1(1), 116-124.
20. Mahmudovich, T. F. O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI. "TOP IZLANUVCHI-2025" ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI, 116.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. maxsus son / № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
